

TEXNIKUM BITIRUVCHILARINI OLIYGOHLARGA QABUL QILISH JARAYONLARI

Nabiyev Dilmurod To'rayevich

Buxoro davlat pedagogika instituti Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bilan ishlash, ichki nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i

Annotatsiya: maqolada texnikumlarni muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga suhbat asosida qabul qilish tartibi haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy, kasb, ta'lim, bakalavriat ta'lim yo'nalishlari, kasbiy ta'lim.

Аннотация: В статье изложены соображения о порядке приема в высшие учебные заведения выпускников, успешно окончивших техникумы, на собеседовании.

Ключевые слова: социальное, профессиональное, образовательное, бакалаврское образование, профессиональное образование.

Annotation: the article describes the procedure for admission of graduates who have successfully graduated from technical schools to higher educational institutions on an interview basis.

Keywords: social, professional, educational, undergraduate areas of Education, Professional Education.

Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora- tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida istiqlol tufayli barcha sohalarda katta o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ushbu o'zgarishlar ta'lim-tarbiya tizimini ham qamrab olgan.

O'zbekistonimiz istiqloлга erishganidan keyin Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini rivojlantirish muammosiga katta e'tibor qaratilmoqda. Bunga hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qator qonun va me'yoriy hujjatlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 2019-yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son Farmoni 3-bandiga muvofiq 2022-2023 o'quv yilidan boshlab texnikumlarda o'rta maxsus ta'lim dasturlarini muvaffaqiyatli tamomlagan bitiruvchilar o'z sohasiga mos bakalavriat

ta'lim yo'nalishlari bo'yicha imtihonlarsiz yakka tartibdagi suhbat orqali oliy ta'lim muassasalarida 2-bosqichdan o'qishini davom ettirish huquqiga ega bo'ldi.

Texnikumni muvaffaqiyatli tamomlaganlar toifasiga texnikumdagi butun o'qish davrida o'quv semestrlari yakuniga ko'ra o'zlashtirish baholari "5 (a'lo)" va "4 (yaxshi)", biroq o'zlashtirish baholarining kamida 50 foizi (tibbiyot oliy ta'lim muassasalari uchun kamida 85 foizi) "5 (a'lo)" bo'lgan bitiruvchilar kiradi.

Mazkur tartib 2021/2022-o'quv yilidan boshlab, bitiruvchi texnikumni tamomlagan yildan boshlab ikki yil mobaynida tatbiq etiladi.

Yuqoridagi toifaga kirmaydigan va texnikumni bitirganiga ikki yildan oshganlar o'qishga kirish istagini bildirganda, ularni oliygohlarning bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga o'qishga qabul qilish umumiy belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ta'lim yo'nalishlari ro'yxati Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlanadi. O'qishga qabul qilish to'lov-kontrakt asosida amalga oshiriladi.

Bitiruvchilar har yili 5-iyuldan 25-iyulga qadar Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining rasmiy veb-sayti orqali onlayn ro'yxatdan o'tadilar.

Onlayn ro'yxatdan o'tgan bitiruvchilarning tizimga yuklangan hujjatlari oliy ta'lim muassasalari qabul komissiyalari tomonidan har yili 5-avgustga qadar o'rganib chiqiladi.

O'rganish natijalari bo'yicha abituriyentlarning shaxsiy kabinetini orqali ularga xabar beriladi.

Bitiruvchilarni oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish bo'yicha o'tkaziladigan suhbat jarayoni har yili 10 avgustdan 25 avgustgacha, oliy ta'lim muassasasi tomonidan belgilangan muddatda o'tkaziladi.

Texnikum bitiruvchilari tahsil olgan texnikum bo'ysunuvi bo'yicha tegishli oliy ta'lim muassasasining sirtqi, kechki va masofaviy ta'lim shakllariga amalga oshiriladi. Agar tegishli oliy ta'lim muassasasida muayyan ta'lim yo'nalishi (kursi) bo'yicha sirtqi, kechki va masofaviy ta'lim shakli mavjud bo'lmagan taqdirda kunduzgi ta'lim shakliga qabul amalga oshiriladi.

Yuqorida qayd etilgan toifaga kirmaydigan hamda texnikumni bitirgan yilidan keyingi yillarda o'qishga kirish istagini bildirgan fuqarolarni oliy ta'lim muassasalari bakalavriatiga qabul qilish umumiy belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Oliy ta'lim muassasasi rektori qabul komissiyasi raisi buyrug'i bilan har bir ta'lim yo'nalishi bo'yicha alohida Suhbat komissiyasi tashkil etiladi.

Suhbat komissiyasi 7 tadan kam bo'lmagan tarkibda tashkil etiladi va uning tarkibiga kadrlarning asosiy ish beruvchilari bo'lgan korxona, tashkilotlar va oliy ta'lim muassasasi bo'ysunuvi bo'yicha vazirlik va idoralarning xodimlari hamda boshqa oliy ta'lim muassasalarining tegishli soha bo'yicha professor-o'qituvchilari kiritilishi mumkin.

Suhbat jarayoni to'liq videokuzatuv ostida o'tkaziladi va jarayon o'tonalar, kuzatuvchilar uchun ajratilgan alohida kutish joyiga onlayn translyasiya qilib boriladi.

Suhbat jarayoni to'liq videokuzatuv ostida o'tkazilishi va videoyozuvlarning kamida uch yil oliy ta'lim muassasasida saqlanishini ta'minlash mas'uliyati shaxsan oliy ta'lim muassasasi rektori zimmasiga yuklatiladi.

Suhbat jarayoniga jamoatchilik vakillari ham xolis kuzatuvchi sifatida jalb etilishi mumkin.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag'iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a'zolarining kamida 50 foizi tavsiya etish tarafdori bo'lgan texnikum bitiruvchilari oliy ta'lim muassasasi rektori tomonidan talabalikka tavsiya etiladi.

Talabalikka tavsiya etilganlar ro'yxati bir kun muddatda oliy ta'lim muassasasining veb-saytida e'lon qilinadi va shu kundan boshlab ularga belgilangan namunadagi to'lov-kontrakt blankalari oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan beriladi.

Ushbu nizom oliy harbiy, oliy harbiylashtirilgan ta'lim muassasalariga, Toshkent davlat yuridik universitetiga, O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan xorijiy va nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari hamda ularning filiallariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Xulosa qilib aytganda, yosh avlodni tarbiyalash borasidagi ishlarni yanada takomillashtirishda amalga oshirilayotgan islohatlarda ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yangi bosqichga ko'tarish ularning kasbga bo'lgan qiziqishlarini va ehtiyojlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi. 2020-yil 24-yanvar.

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 2019 yil 6 sentyabrdagi PF-5812-son Farmoni.